

**AYNIYNING “ESDALIKLAR” MEMUAR ASARIDA BUXORO ADABIY MUHITI.**

*Sattorova Nargiza Abduraupovna*  
*BuxDpi magistranti*  
*nargizasattorova1997@gmail.com*

**Annotatsiya:** Atoqli adib Sadridin Ayniyning "Esdaliklar" asari xususida, jumladan uning tarkibi hamda Buxoro adabiy muhitining yirik namoyondasi Sadr Ziyo haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** "Esdaliklar", memuar, oronimlar, " Darai Nihon", Braginskiy, Sadr Ziyo, Latifjon Maxdum.

Ayniyning adabiyotimiz tarixidagi katta xizmatlaridan yana biri - “Esdaliklar” memuar asarini yaratganligidir. Asar adib hayotining songgi yillarida yaratilgan. Buning sababini uning o'zi quyidagicha izohlaydi: “Mening fikrimcha, esdalik yozish roman va hikoya yozishdan qiyinroq bo'lgani uchun bu ishni koproq tajriba olgunimga qadar qoldirgan edim”. Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, Zahiriddin Bobur ham “Boburnoma”ni insho etgunga qadar ozi korgan va guvohi bolgan voqealarni kundaliklar tarzida yozib borgan. Shu kundaliklar mashhur “Boburnoma”ni yozishda katta material vazifasini otagan. Ya`ni Bobur ham bu asar bunyodga kelgunga qadar ancha-muncha hayotiy tajriba orttirgan.

Memuar-(frans.Memore-xotira,esdalik degan ma'noni anglatadi)- o'tmish xotiralari haqidagi asar. Memuar asarlarning markazida kishilarning shaxsiy hayoti turadi. Hikoyalar, voqealar rivoji uchun kishilarning hayot yo'li asos bo'ladi. Memuar asarlar kishining butun bir hayotini emas, balki kishi hayotidagi ayrim lavhalarni tasvirlaydi.

Sadridin Ayniyning "Esdaliklar" asari XIX asr Buxoro adabiy muhitini o'rganishimiz uchun asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu asarda Sadridin Ayniy o'sha davr muhitini tasvirlab, o'z ko'zi bilan ko'rgan voqea-hodisalarni tasvirlagan. Uning fikricha, esdalik yozish roman va hikoyalar yozishdan qiyinroq bo'lgani uchun bu ishni ko'proq tajriba olgunimga qadar qoldirganligini, chunki odam o'tgan turmushni real tarzda o'rganmaguncha, hozirgi turmushning - sovet sotsialistik turmushining qimmatini yetarli darajada tasavvur qila olmasligini, shuningdek, uning adabiyotida katta tajriba hosil qilmasa, hozirgi nuqtai nazardan, o'tgan turmush-feodal turmushni real va to'la tasvir qila olmasligini ta'kidlab o'tgan.

S. Ayniy kitob muqaddimasida esdaliklarning taxminiy mundarijasini quyidagicha bo'lishini aytgan:

"Qishloqda, shaharda madrasa hayoti, uning dars jadvali, o'qish tartibi, umuman xalqining ahvoli, turli tabaqalarning bir-birlariga munosabatlari( o'zim ko'rgan, bilgan va sezgan darajada), o'tmishdagi adabiy hayot, fikrimda paydo bo'lgan o'zgarishlar, amir hukumatiga va rasmiy ulamolarga qarshi harakatlar, 1905-yil va fevral inqilobining Buxoroga ta'siri, bu orada o'zimizning boshimdan o'tgan voqealar, Buxorodan Samarqandga ko'chishim, Samarqandda fevral va oktabr inqiloblari orasida ro'y bergan voqealar".

Sadriddin Ayniy bu ma'lumotlarni 5 bo'limda berishini, biroq ma'lum bir o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan.

Sadriddin Ayniy, o'z ijodida turli janrlardan ustalik bilan foydalangan. Ma'lumki, badiiy asarlarda real va xayoliy personajlardan foydalaniladi. Xuddi shunday yondashuv geografik nomlardan foydalanishda ham sodir bo'ladi. S. Ayniy geografik nomlarning ana shu ikki jihatda har tomonlama qo'llanilishiga misol bo'ladi. Agar u "Yoddoshtho ("Esdaliklar") va "Isyoni Mukanna"(Muqanna qo'zg'oloni) badiiy-tarixiy ocherklarida va "Qahramoni xalqi tojik Temurmalik"("Tojik xalqi qahramoni Temurmalik") yozuvchi asosan real tarixiy geografik nomlar, keyin boshqa asarlarda tarixiy nomlar bilan bir qatorda adabiy geografik nomlarni ham qo'llanadi.

Badiiy matnda yozuvchi yaratgan real va badiiy toponimlar bir xilda idrok qilinadi. Ana shunday uydirma geografik nomlardan biri "Doxunda" romani va "Odina" qissasida qo'llangan "Darai Nihon" oronimidir. S.Ayniy bu daraning joylashuvi va go'zal tabiatini shunday ta'riflaydiki, bunday daraning borligiga shubha yo'q. O'zi yaratgan ismning haqiqiyliigi va butunlay tabiiy ko'rinishi uchun muallif ushbu denotatsiyaning ikkinchi metaforik shaklini yaratadi, ya'ni. Tangniho - "Tor dara" "Agar az Sari Juy baromada az daruni kohsor ba Qurg'ontepa pinhoni raftani shaved, rohi shumo az daruni Darai Nihon meaftad. Darai Nixon, ba nomi digar "Tangnihon" yake az darahoi kohistoni Hisori Shodmon ast. In dara, chunon ki az nomash ma'lum ast, az nazarho pinhon buda, tanxo az du tarafash: tarafi Sari Juy va Bobotog'i du tangno namoyon meshavad..."

Nasrdagi ijodkor uslubining qirralari asosan jamiyat hayotini tasvirlashda namoyon bo'ladi. Nosir badiiy ijod yaratar ekan, unga o'z estetik tafakkurini baxsh etadi. Agar ijodkor shaxs o'z jamiyati muammolarini, vaziyatini ko'ra olmasa, unday ijod namunasi adabiyotning talablariga javob bermaydi. Bu haqida O'rol Nosirov shunday deydi: "Haqiqiy yozuvchi davrning ilg'or kishisi, el-yurtning quvonchi va g'amiga sherik, unga kamarbasta, zamonasi, qolaversa, insoniyat progressi, madaniy boyligi uchun kurashuvchi, ijtimoiy taraqqiyot, madaniy rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi faol harakatdagi inson".

Ya'ni ijodkor shaxs jamiyat hayotining faol a'zosidir. Jamiyat hayotini esa har bir ijodkor badiiy mahorat kuchi yordamida tasvirlaydi. "Esdaliklar"da ham Sadriddin Ayniy jamiyat hayotini tasvirlashda o'z original uslubini yaratdi. Biz uning uslubini

reallikda ko'ramiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, memuar janri faktlarga asoslangan bo'lib, unda ijodkor voqelikni ro'y-rost bayon qilishi shart. Adib ham ushbu qoidaga amal qilgan holda ijtimoiy muammolarni hech qanday bezaklarsiz o'quvchiga bera oldi. Memuar –romanning ko'p o'rnida biz bunga amin bo'lamiz. “Esdaliklar” to'rt qismdan iborat bo'lib, voqealar obyektini amir hukumati, ijtimoiy hayot, Buxoro aholisining turli tabaqalari, adibning sarguzashtlari hisoblanadi. S.Ayniy Buxoro aholisining hunarlariga alohida-alohida to'xtalib o'tadi. Buni biz asarning barcha qismlarida uchratamiz. Buxoroda kosiblar, duradgorlar, sartaroshlar, chilangarlar, kovushdo'zlar, sudxo'rlar, sarbozlar, aravakashlar, shoirlar, donishmandlar, savdogarlar, o'g'rilar, mullalar, paxtakashlar kabi tabaqa vakillari turish-turmushini ma'lum bir personaj yordamida ochib beradi. Masalan, adib chilangarlar toifasini tasvirlashda (“Esdaliklar”ning uchinchi qismida keltirilgan “Chilangar shayx va uning korxonasi” hikoyasida) chilangar shayx obrazini keltiradi. Ushbu hikoyada endigina o'n olti yoshga kirgan Sharifjon ham bo'lib, u chilangarlikni o'rganib, shayx qo'lida ishchi bo'lib kiradi. Adib har bir asarlarida o'limsiz hayotni mavjud emasligini va hayotsiz o'lim ham bo'lmasligini ifodalaydi. Ikkinchi bob to'laligicha S.Ayniyning nasrdagi uslubiga bag'ishlanadi. Ijodkorning uslubini ochib berish hattoda asar tarkibida keltirilgan voqea-hodisalar, personajlar tasiri va hayotiy voqealarning badiiyatga ko'chgan jabhalariga e'tibor qaratdik. Ijodkor nasrda o'ziga Ahmad Donishni ustoz deb biladi. S.Ayniyning ulkan nasriy asarida tarixiy voqealarni va personajlarni hayotiy qilib kitobiga kiritdi. Xotiralar ustoz uslubining cho'qqiga chiqqan nuqtasida yozilgan memuar-roman bo'lganligi sababli, unda realizm chaqmoq misol porlaydi.

Ustod Ayniy “Esdaliklar”ining yetakchi ijobiy qahramonlaridan biri Sharifjon Mahdum Sadri Ziyodir. Sharif uning nomidir, “Mahdum” mullazodalar nomiga qoshilib keladigan soz, “Sadr” ilmiy–diniy unvon bolib, keyingi asrlar Buxoroda ulamolarga beriladigan uchinchi oliy unvon sanaladi. “Ziyo” uning adabiy taxallusidir. Yosh Sadriddinxojadagi iste'dodni payqagan va uning Buxoro madrasalarida tahsil olishi, shu sharif shaharning ilmiy – adabiy muhitidan xabardor bolishida keng yol ochib bergan zarif inson ham Sharifjon Mahdum Sadr Ziyodir.

Ustod 1891-1892 - yillarda osha ma'rifatparvar adib xonadonida xizmat qiladiki, professor I.S.Braginskiyning ta'biri bilan aytganda, Sharifjon Mahdumning joshqin adabiy davralari yosh Ayniy uchun “hayotbaxsh sarchashma” vazifasini otadi. Shundan bolsa kerak, alloma adib “Esdaliklar”dan joy olgan Buxoro adabiy muhitiga doir nodir ma'lumotlarni Sharifjon Mahdum Sadr Ziyoninomi bilan bog'lab yoritadi.

Adib o'z asarida yuqoridagi shoir va she'rshunoslarning ba'zilarini xususida ma'lumot berib, muxtasar chizgilarini ham yaratgan. Chunonchi, Abdulmajid Zufunun yulduzlar ilmida Ahmad Donishning shogirdi bolib, she'r va adabiyot hamda Buxoro madrasalarida oqitiladigan boshqa rasmiy fanlar sohasida ham mahorat korsatgan edi.

U turli fan ilmlarini kop bilgani sababli zamondoshlari unga “Zufunun” – “fanlar egasi” degan laqabni bergan edilar. Sadriddin Ayniy Latifjon Mahdum suhbatidagi ziyolilardan ikkinchi bir kishini ham alohida ajratib korsatadi. Bu – Mirzo Azim Somiy Bo'stoniy. U madrasani tugatgach dastlab hokimlarga mirzolik qilgan, keyinchalik amir Muzaffar saroyiga munshiylik lavozimiga ishga kirgan. Amir Muzaffar bilan Rossiya podshosi ortasida bolgan urushda kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. Uning mangit podshohlari tarixiga oid “Tuhfayi shohiy”, shuningdek, “Daxmayi shohon” kabi asarlari bor. Ko'rinadiki, Sadriddin Ayniy Sharifjon Mahdum haqida yozar ekan, uning atrofidagi adabiy muhit egalariga ham alohida e'tibor beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Садриддин Айний. Асарлар. 8 томлик, 7- том. Тошкент: “Бадий адабиёт нашриёти”, 1966.
2. Хаккул И. Айний адабиёти. // “Узбек тили ва адабиёти” журнали, 5-сон, 2003-йил. 4-13 б.
3. Вохидов Р., Махмудов М. Устод Садриддин Айний сабоклари. Тошкент: “Фан”, 2004.
4. Садриддин Айний. Мухтасари таржимаи холи худам. Сталинобод.
5. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 6-tom- T.: "Toshkent "badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
6. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 5-tom- T.: "Toshkent "badiiy adabiyot nashriyoti, 1965